

BADIY DISKURSDA STILISTIKA VA LINGVOPOETIKA UYG'UNLIGI

Marufova Zulfiya Nabiyevna,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

ORCID ID - 0009-0004-7152-8846

Email: z.nazarova3105@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18695919>

Annotatsiya. Mazkur maqolada mumtoz badiiy matn misolida lingvopoetika, stilistika va badiiy diskurs tahlilining o'zaro nazariy munosabati tadqiq etiladi. Ularni integrativ yondashuv asosida birlashtirish estetik va konseptual ma'no yaratilishining kompleks, izohlovchi modelini shakllantirishga imkon berishi asoslanadi. Stilistika ifodaviy til shaklini tahlil qiluvchi daraja sifatida, lingvopoetika badiiy-estetik ma'no yaratish mexanizmlarini ochib beruvchi bosqich sifatida, badiiy diskurs tahlili esa ma'noni kognitiv, madaniy va kommunikativ kontekstlarda talqin etuvchi umumiy platforma sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: lingvopoetika; stilistika; badiiy diskurs; kognitiv tilshunoslik; estetik ma'no; integrativ model, lingvomadaniy kod.

Аннотация. В данной статье на материале классического художественного текста исследуется теоретическое соотношение лингвопоэтики, стилистики и анализа художественного дискурса. Обосновывается положение о том, что их объединение на основе интегративного подхода позволяет сформировать комплексную и объяснительную модель конструирования эстетического и концептуального значения. Стилистика рассматривается как аналитический уровень, направленный на изучение выразительной языковой формы; лингвопоэтика — как этап, раскрывающий механизмы создания художественно-эстетического смысла; анализ художественного дискурса — как общая платформа, интерпретирующая значение в когнитивном, культурном и коммуникативном контекстах.

Ключевые слова: лингвопоэтика; стилистика; художественный дискурс; когнитивная лингвистика; эстетическое значение; интегративная модель; лингвокультурный код.

Abstract. This article explores the theoretical interrelation between linguopoetics, stylistics, and literary discourse analysis on the basis of a classical literary text. It argues that integrating these approaches within an integrative framework makes it possible to construct a comprehensive and explanatory model of aesthetic and conceptual meaning formation. Stylistics is regarded as an analytical level concerned with expressive linguistic form; linguopoetics as a stage that reveals the mechanisms of artistic and aesthetic meaning-making; and literary discourse analysis as a general platform that interprets meaning within cognitive, cultural, and communicative contexts.

Keywords: linguopoetics; stylistics; artistic discourse; cognitive linguistics; aesthetic meaning; integrative model, linguocultural code.

Kirish. So'nggi o'n yilliklarda kognitiv tilshunoslik, diskurs tahlili va funksional yondashuvlarning kuchayishi mazkur cheklovlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Tadqiqotchilar badiiy ma'noni til vositalarining mexanik yig'indisiga aylantirib bo'lmashligini, aksincha, u til shakli, kognitiv jarayonlar, madaniy bilim va kommunikativ niyatlar o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sir natijasida vujudga kelishini tobora ko'proq ta'kidlamoqda. Ana shu o'zgarish badiiy tilni tadqiq etishda bir qator tahliliy

yoʻnalishlarning shakllanishi va takomillashuviga olib keldi. Ular orasida stilistika, lingvopoetika va badiiy diskurs tahlili markaziy oʻrin tutadi.

Stilistika anʻanaviy ravishda badiiy kommunikatsiyada til birliklarining ifodaviy imkoniyatlarini va ularning funksional qoʻllanishini oʻrganadi. Lingvopoetika tasvir, ramz, ritm, konseptual tashkillanish orqali estetik maʼno qanday yaratilishini izohlashga intiladi. Badiiy diskurs tahlili esa badiiy matnni kognitiv, madaniy, tarixiy va ideologik kontekstlarda talqin qiladi. Biroq ushbu sohalar koʻpincha bir-biridan mustaqil qoʻllanadi; bu esa talqinning parchalanishiga va metodologik nomutanosiblikka sabab boʻladi.

Lingvopoetika va badiiy diskurs tahlili raqobatchi yoki bir-birini inkor etuvchi metodlar emas. Ular badiiy maʼno yaratilishini tushuntirishga qaratilgan yagona nazariy tizimning oʻzaro bogʻliq tahliliy darajalaridir. Stilistika matndagi kuzatiladigan til shaklini aniqlaydi; lingvopoetika ushbu shakllarning estetik maʼno yaratishdagi mexanizmlarini ochib beradi; badiiy diskurs tahlili esa hosil boʻlgan maʼnoni madaniy va kognitiv tizimlarda joylashtirib, talqinning ijtimoiy-kommunikativ oʻlchovini taʼminlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikning har uchala yoʻnalishi boʻyicha qataor ilmiy tadqiqotlar bajarilgan. Dunyo tilshunosligida R.Stokvell, V.Karasik, T.van Djik kognitiv poetika, konsept va diskurs, diskurs va matn muammolari doirasida ilmiy izlanishlar olib borgan. Oʻzbek tilshunoslaridan A.Rahmatullayev oʻzbek tili stilistikasi boʻyicha, M.Yoʻldoshev va boshqalar badiiy matn va uning lingvopotik xususiyatlari masalasida oʻz qarashlarini bayon etganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada lingvopoetik, diskursiv, stilistik tahlil usullaridan foydalanildi. Til birliklarining badiiy diskursdagi vazifasi, muallifning subʼektiv bahosi, goʻzallik etalonlarining poetik maqsad ifodasidagi kognitiv mexanizmlari ochib berildi.

Tahlillar va natijalar. Stilistika badiiy kommunikatsiyada tilning funksional qoʻllanishini tadqiq etuvchi asosiy yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. U leksik tanlov, sintaktik qurilish, morfologik variantlar, fonetik va intonatsion namuna (pattern)lar qanday qilib ifodaviylik, “oldinga surish” (foregrounding) va uslubiy taʼsirni shakllantirishini tahlil qiladi. Stilistik nuqtayi nazardan badiiy matn estetik, emotsional va kommunikativ maqsadlar uchun tanlangan til vositalari tizimi sifatida qabul qilinadi.

Klassik stilistika, ayniqsa strukturalistik anʻana taʼsirida metafora, oʻxshatish, takror, parallelizm, inversiya, alliteratsiya kabi uslubiy vositalarni aniqlash va tasniflashga urgʻu bergan. Keyingi bosqichlarda funksional stilistika rivojlanib, uslubiy tanlovlarning pragmatik vazifalarini koʻrsatishga, yaʼni til shaklini muallif niyati va oʻquvchi qabul qilish mexanizmlari bilan bogʻlashga harakat qildi.

Stilistikaning yana bir cheklovi – uslubiy vositalarni “alohida” fenomen sifatida koʻrish tendensiyasidir. Holbuki, badiiy matnda uslubiy xususiyatlar odatda yakka holda ishlaydi: ular tasviriy tizim, ramziy tarmoqlar, syujet/narrativ tashkillanish va madaniy

konvensiyalar bilan uzviy bog‘lanadi. Agar ushbu o‘zaro ta’sirni izohlay oladigan nazariy ramka bo‘lmasa, stilistik tahlil “vositalar ro‘yxati”ga aylanib qolishi mumkin.

Bu o‘rinda A.Rahmatullaevning quyidagi fikrini keltirish o‘rinli: “Stilistika badiiy nutqda til birliklarining ifodaviy va estetik imkoniyatlarini aniqlash, ularning funksional qo‘llanish xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan tilshunoslik sohasidir” [1, 14]. Shu sababli stilistikaning estetik ma’noni tushuntirishda semantik, kognitiv va madaniy o‘lchovlarni qamray oladigan yondashuvlarga ehtiyoji bor. Lingvopoetika ana shu integratsiyaning muhim bo‘g‘ini bo‘lib, badiiy ma’noni formal vositalardan “yuqori” bo‘lgan mexanizmlar orqali izohlaydi.

Lingvopoetika faqat tasviriy stilistika imkoniyatlari bilan cheklanib qolmay, badiiy matnda estetik ma’no qanday yaratilishini izohlashga yo‘naltirilgan. Agar stilistika “nima bor?” va “qanday qurilgan?” degan savollarga javob bersa, lingvopoetika “bu nima uchun va qanday estetik ma’no beradi?” degan savolni ilmiy ravishda yoritadi. U adabiy tilni ma’no ishlab chiqarishning maxsus rejimi sifatida ko‘radi: bu yerda shakl va mazmun bir-biridan ajralmas holda, o‘zaro mutanosib tarzda harakat qiladi. “Badiiy matnda til birliklari estetik butunlikni ta’minlagan taqdirdagina poetik ahamiyat kasb etadi; shu jihatdan lingvopoetik tahlil shakl bilan mazmun uyg‘unligini ochishga xizmat qiladi” [3, 47].

Professor M.Yo‘ldoshev “Tilning estetik vazifasining asosiy namoyon bo‘lish o‘rni badiiy asar matni ekan, bu vazifaning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish a adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, poetika kabi adabiyotshunoslik yo‘nalishlari va lingvistik stilistika, til tarixi, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, grammatika kabi tilshunoslik yo‘nalishlari bir-biri bilan hamkorlikda ish ko‘rishi lozim”ligini ta’kidlaydi [4, 18].

Lingvopoetik nuqtayi nazardan estetik ma’no tasvir, simvol, ritm, fonetik vositalar, kompozitsiya va konseptual strukturaning o‘zaro ta’siri orqali shakllanadi. Til birliklari matnda estetik butunlikni barpo etishda ishtirok etsagina poetik ahamiyat kasb etadi. Lingvopoetik nuqtai nazardan estetik ma’no til shakli va kognitiv qayta ishlash jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga keladi. Bu ma’noda estetik ta’sir tasodifiy yoki subyektiv taassurot emas, balki konseptual jihatdan tashkillangan hodisa hisoblanadi. Shuni ta’kidlab, P. Stockwell poetik ma’noni tilning tashqi bezagi sifatida emas, balki til shakli bilan kognitiv jarayonlar o‘zaro uyg‘unlikda ishlab, estetik tajribani shakllantiradigan konseptual tashkillanish usuli sifatida talqin qiladi [6]. Ushbu yondashuv lingvopoetik tahlilning kognitiv asoslarini mustahkamlab, estetik ma’noni tizimli ravishda izohlash imkonini beradi. Demak, lingvopoetika badiiy matnni semantik va konseptual darajada ishlab, til shaklini badiiy niyat va o‘quvchi qabul qilish jarayoni bilan bog‘laydi.

Lingvopoetikaning muhim xususiyati – estetik ma’noning dinamikligi. Ma’no matnda “tayyor” holda yotib qolmaydi; u matn strukturasi bilan kognitiv qayta ishlash jarayoni o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirda yuzaga keladi. O‘quvchi poetik ma’noni faol qurishda ishtirok

etadi: u til ishoralarini talqin qiladi, madaniy bilimni ishga soladi, obraziy xulosalar chiqaradi va ijodiy tasavvurga suyanadi. Bundan tashqari, lingvopoetika estetik ta'sirni subyektiv taassurot emas, balki strukturalangan hodisa sifatida ko'rishga yordam beradi. Qayta-qayta uchraydigan obrazlar, ramzlar, konseptual metaforalar va poetik patternlar aniqlanganda, estetik ta'sirning matnda tizimli ravishda qurilgani ko'rsatiladi. Bu esa lingvopoetik tahlilni subyektiv "yoqdi-yoqmad" tipidagi impressionistik talqindan ajratib, uni kognitiv va ilmiy tahlilga yaqinlashtiradi.

Shu bilan birga, lingvopoetika stilistikani inkor etmaydi; aksincha, uning natijalarini yuqori darajada izohlaydi. Biroq lingvopoetika ham o'z-o'zicha badiiy ma'noning barcha o'lchovini qamrab ololmaydi. Estetik ma'no madaniy va kommunikativ kontekstlar bilan ham belgilanadi. Bu o'lchovlarni badiiy diskurs tahlili ta'minlaydi.

Stilistika va lingvopoetika, asosan, matnning ichki tashkillanishiga e'tibor qaratsa, badiiy diskurs tahlili tahlil doirasini kengaytiradi va matn ma'nosini kognitiv, madaniy hamda kommunikativ ramkalarga joylashtiradi. Bu fikr o'zbek tilshunosligida N. Mahmudov tomonidan quyidagicha asoslab berilgan: "Matn ma'nosi uni tashkil etuvchi til birliklarining oddiy yig'indisi emas, balki ularning o'zaro munosabati, kontekst va kommunikativ vaziyat bilan belgilanadi" [2, 27].

Badiiy diskurs darajasida estetik ma'noni faqat matn ichiga xos hodisa sifatida tushunish mumkin emas. U kognitiv va madaniy omillar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, T. van Dijk diskursni faqat til birliklarining qo'llanishi yoki matn tuzilishi sifatida emas, balki ma'no ijtimoiy tajriba, umumiy bilim va madaniy kontekstlar asosida shakllanadigan hamda ishtirokchilar o'rtasida talqin qilinadigan kognitiv-ijtimoiy jarayon sifatida talqin qiladi [7]. Bu ta'rif badiiy ma'noning diskursiv tabiatini asoslab, uni madaniy va ijtimoiy kognitsiya bilan bog'lab o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Diskurs nuqtayi nazaridan badiiy matn yakka, "izolyatsiyalangan" til artefakti emas, balki tarixiy, madaniy, ideologik omillar ta'sirida shakllangan ijtimoiy-madaniy kommunikatsiya shaklidir.

Kognitiv diskurs nazariyasi diskursni ijtimoiy taqsimlangan kognitsiya sifatida tushuntirib, bu yondashuvni yanada mustahkamlaydi. Badiiy matnlar umumiy madaniy sxemalar, narrativ ramkalar va baholovchi modellarni faollashtiradi; o'quvchi talqini ana shu kognitiv resurslar bilan uyg'unlashganda estetik ma'no shakllanadi. Demak, estetik ma'no faqat til shakli yoki poetik obrazlardan emas, balki matn ishoralari bilan madaniy-kognitiv resurslar o'rtasidagi muvofiqlikdan ham kelib chiqadi.

Muhimi, badiiy diskurs tahlili tekstual tahlilning o'ziga qarshi qo'yilmaydi. Aksincha, u stilistik va lingvopoetik natijalarga keng talqin imkoniyatini beradi. Diskurs kontekstlantirishsiz uslubiy vositalar va obraziy tarmoqlar tahlili abstrakt, madaniy "ilovasiz" talqinga aylanib qolishi mumkin. Shunday ekan, badiiy diskurs tahlili stilistikada boshlangan va lingvopoetikada chuqurlashgan tahlil traektoriyasini yakunlaydi. Qisqa qilib aytganda, badiiy diskurs matnning faqat lisoniy tuzilishi bilan cheklanmay,

uning yaratilish va qabul qilinishida ishtirok etuvchi kognitiv, madaniy va kommunikativ omillarni qamrab olgan yaxlit ma'no makonidir.

Stilistika, lingvopoetika va badiiy diskurs tahlilini bir tizimga birlashtirish aniq ifoda etilgan metodologik asosni talab qiladi. Metodologik shaffoflik va nazariy uyg'unlik ilmiy ishonchlilikning asosiy mezonini hisoblanadi. Shu bois integrativ yondashuv tahliliy darajalar, tadqiqot amaliyoti va talqin qoidalarini belgilab berishi shart.

Ushbu ramkalar uchta o'zaro bog'liq tahliliy darajada ishlaydi.

Bu integratsiyani mumtoz matnlar misolida ko'rib chiqamiz.

Ul orazu ruxsor ila zulfi, engi lola,

Oydinda yotur gul uza bir hindu uzola (Lutfiy).

Baytda yuz, zulf (soch), eng (yonoq) ta'rifi uchun oydin (lik), hindu (habash), lola leksemalari etalon qilib olingan. Ko'chgan belgilar – *oqlik, qizillik, qoralik*. Stilistik vosita – metafora asosida lisoniy tus olayotgan yangi kognitiv ma'nolar badiiy diskursda, ya'ni matn ichidagina poetik maqsadga xizmat qiladi. Muallif rang xususiyatlarini bu yo'sinda berishi uning idiositilini belgilaydi. Bu esa lingvopoetika bilan aloqadolikni ta'minlaydi.

Mazkur tahlil asosida har uchala darajaning funksional chegarasini aniqlaymiz.

Lingvopoetik daraja.

Asosiy lingvopoetik mexanizmlar: kosmomorfik, fitomorfik, antropomorfik modellar. She'rda insonlar tirik tabiatning bir qismi sifatida konseptuallashadi. Bu **tabiat–inson uyg'unligi** estetik modelini hosil qiladi.

Metaforik markaz: yuz go'zalligi

Ul orazu ruxsor ila zulfi, engi lola

Kognitiv sxema: tabiat → inson → go'zallik.

Lingvopoetik xulosa: She'rda go'zallik tabiat obrazlari va shaxs oti orqali estetik modellashadi; go'zallik unsurlari oyurazlar+ranglar vositasida verballashadi.

Diskursiv daraja. Bu darajada she'r yakka matn emas, balki madaniy nutq akti sifatida qaraladi. Badiiy diskurs xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Milliy-madaniy va ijtimoiy kodlar – *oy, hindu* mumtoz badiiyatda kuchli simvolik yukka ega obrazlar.

She'r milliy-badiiy diskurs doirasida inson, tabiat va koinotni yagona ma'naviy makon sifatida talqin qiladi.

Xulosa. Tahlil xulosasi sifatida aytish mumkinki, stilistik darajada metafora, o'xshatish faol qo'llanib, obrazlilik ta'minlangan. Lingvopoetik darajada inson obrazi tabiat, koinot va inson bilan uyg'unlikda modellashib, go'zallik konsepti estetik ma'no kasb etgan. Diskursiv darajada esa matn milliy-madaniy kodlar orqali shakllangan lirik diskurs sifatida namoyon bo'lib, oshiqona kechinmalar poetik tarzda bayon etilgan.

Ko'rib turganimizdek, metodologik tahlil shakldan funksiyaga, funksiyadan kontekstga qarab harakat qiladi. Stilistik tahlil empirik asosni beradi; lingvopoetik tahlil badiiy-estetik ishlash mexanizmlarini ochadi; diskurs tahlili esa ma'noni keng kognitiv va

madaniy tizimlarda joylashtiradi. Ana shu ketma-ketlik (biroq o‘zaro bog‘langan tarzda) tahlilning uyg‘unligini ta’minlaydi va metodologik parchalanishni bartaraf etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Раҳматуллаев А. Ўзбек тили стилистикаси. — Тошкент: Университет, 2006.
2. Маҳмудов Н. *Матн ва маъно*. — Тошкент: Фан, 2007.
3. Йўлдошев М. *Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари*. — Тошкент: Фан, 2007.
4. Йўлдошев М. *Бадий матн лингвопоэтикаси*. — Тошкент: Фан, 2008. — Б.18.
5. Карасик В. И. *Языковой круг: личность, концепты, дискурс*. — М.: Гнозис, 2004.
6. Stockwell, P. *Cognitive Poetics: An Introduction*. 2nd ed. — London: Routledge, 2020.
7. van Dijk, T. A. *Discourse and Context: A Sociocognitive Approach*. — Cambridge: CUP, 2008.

